

Elektromagnit to'liqlar.

1. Transformator qanday asbob? (A) o'zgaruvchan kuchlanishni o'zgartiruvchi. B) zarrachalarni tezlashtiruvchi. C) elektromagnit tebranishlarni hosil qiluvchi. D) radioaktiv nurlanishlarni aniqlovchi. E) TJY.
2. Transformatorning ishlashi ... ga asoslangan. Nuqtalar o'rniga quyidagilardan to'g'risini tanlab qo'ying. A) Joul-Lens qonuni. (B) elektromagnit induksiya qonuni. C) Kulon qonuni. D) Om qonuni. E) TJY.
3. Transformatorning transformatsiya koeffitsienti ifodasini toping. (A) $k=U_1/U_2$. B) $k=M/q$. C) $k=F/x$. D) $k=A/ZF$ E) $k=R/NA$.
4. Transformatorning birinchi chulg'amiga 220 V kuchlanish berildi. Agar transformatsiyalash koeffitsienti 0,8 bo'lsa. ikkinchi chulg'amdagi kuchlanish qanday bo'ladi (V)? A) 364. (B) 275. C) 220. D) 176. E) 110.
5. Transformatorning birlamchi chulg'amiga 220 V kuchlanish berilgan. Birlamchi chulg'amdagi o'ramlar soni 400. Ikklamchi chulg'amdagi o'ramlar soni 200. Ikkilamchi chulg'amclagi kuchlanish qanday (V)? (A) 110. B) 100. C) 200. D) 220. E) 360.
6. Transformatorning ikkilamchi chulg'amidagi o'ramlar soni 990 ta, kirishidagi kuchlanish 220 V, chiqishidagi kuchlanish 330 V bo'lsa, birlamchi chulg'amdagi o'ramlar soni qanday? A) 110. B) 220. C) 330. A) 440. (E) 660.
7. Transformatorning birlamchi chulg'ami 40 o'ramdan iborat. Kuchlanishni 220 dan 22000 V gacha orttirish uchun transformatorning ikkilamchi chulg'amidagi o'ramlar soni nechta bo'lishi kerak? A) 22000. (B) 4000. C) 2200. D) 400. E) 40.
8. Transformatorning birlamchi chulg'amiga 220 V kuchlanish berilgan. Ikkilamchi chulg'amdagi kuchlanish 10 V. Agar ikkilamchi chulg'amdagi o'ramlar soni 100 ta bo'lsa, birlamchi chulg'amdagi o'ramlar soni qanday? A) 11. B) 22. C) 220. (D) 2200. E) 22000.
9. Transformatorning birlamchi chulg'amida 840 ta o'ram bor. Transformatsiya koeffitsienti 4,2 ga teng bo'lsa, ikkinchi chulg'amda nechta o'ram bor? A) 20. (B) 200. C) 2000. D) 2528. E) 352.
10. Birinchi chulg'amida 600 ta o'rami bo'lgan transformator 220 V kuchlanishni 880 V gacha ko'tarib berayapti. Transformatsiyalash koeffitsien- tini va ikkinchi chulg'amdagi o'ramlar sonini aniqlang. A) 4; 2400. B) 4; 160. (C) 0,25; 2400. D) 0,25; 150. E) 4; 300.

11. Birlamchi chulg'amida 900 ta o'rami bo'lgan transformator kuchlanishni 220 V dan 660 V gacha oshiradi. Transformatsiyalash koeffitsienti va ikkilamchi chulg'amdagi o'ramlar soni topilsin. A) 3; 2700. (B) $1/3$; 2700 C) 3; 300. D) $1/3$; 300. E) $1/3$; 900.

12. Pasaytiruvchi transformatorning ikkilamchi chulg'ami zanjiridagi kuchlanish 80 V va tok kuchi 2 A. Kuchlanish 160 V bo'lgan birlamchi chulg'amidagi tok kuchi necha amper? Isrofni hisobga olmang. (A) 1. B) 0,5. C) 1,5. D) 2. E) 4.